

MUSIQA VA TASVIRIY SAN'AT

S.B.Murtazova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori,
tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri

sahodat@mailru

MUSTAQILLIK YILLARIDA MUSIQA TA'LIMI VA SAN'ATI MASALASI VA UNING TARIXSHUNOSLIGI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston mustaqilligi yillarida musiqiy ta'lim va musiqiy san'at muammolarining tarixshunosligiga bag'ishlangan materiallar umumlashtiriladi. Ushbu davrda e'lon qilingan ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, avtoreferatlar va monografiyalar tahlil qilinib, ularning musiqiy madaniyat taraqqiyotini o'rganishga qo'shgan hissasi baholanadi. Shuningdek, mustaqillik sharoitida musiqiy ta'lim va san'at tarixshunosligida qo'llanilgan metodologik yondashuvlar, tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari hamda hanuzgacha echimini topmagan muammolarga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalitli so'zlar: musiqa ta'limi, san'at, madaniyat, tarixshunoslik, tadqiqot, avtoreferat, dissertatsiya, monografiya, folklor, ma'naviyat, tarix, nazariya.

ПРОБЛЕМЫ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ИХ ИСТОРИОГРАФИЯ

Аннотация. В статье обобщаются материалы, посвящённые историографии проблем музыкального образования и музыкального искусства в годы независимости Узбекистана. Анализируются научно-исследовательские работы, диссертации, авторефераты и монографии, опубликованные в данный период, а также оценивается их вклад в изучение развития музыкальной культуры. Особое внимание уделяется методологическим подходам, основным направлениям исследований и нерешённым проблемам в историографии музыкального образования и искусства в условиях независимости.

Ключевые слова: музыкальное образование, искусство, культура, историография, исследование, автореферат, диссертация, монография, фольклор, духовность, история, теория.

ISSUES OF MUSIC EDUCATION AND MUSICAL ART DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE AND THEIR HISTORIOGRAPHY

Annotation. The article summarizes historiographical materials on the issues of music education and musical art during the years of independence of Uzbekistan. It analyzes scholarly research works, dissertations, abstracts, and monographs published in this period and evaluates their contribution to the study of the development of musical culture. Special attention is paid to methodological approaches, major research trends, and unresolved problems in the historiography of music education and musical art in the context of independence.

Keywords: music education, art, culture, historiography, research, dissertation, abstract, monograph, folklore, spirituality, history, theory.

Kirish. Mustaqillik yillari O'zbekiston hayotining barcha sohalari qatorida madaniyat va san'at, xususan, musiqa ta'limi va musiqa san'ati rivojida ham tub burilish davri bo'ldi. Yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitda milliy qadriyatlarni tiklash, ma'naviy merosni asrab-avaylash va uni

zamonaviy taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu jarayon musiqa ta'limi tizimida islohotlar amalga oshirilishi, milliy va an'anaviy musiqa san'atiga bo'lgan ilmiy hamda amaliy qiziqishning ortishida yaqqol namoyon bo'ldi.

Mustaqillik davrida musiqa ta'limi va san'ati nafaqat ijodiy faoliyat sohasi, balki milliy o'zlikni anglash, ma'naviy tarbiya va jamiyatning madaniy salohiyatini yuksaltirishning muhim omili sifatida qarala boshlandi. Shu bilan birga, mazkur sohada amalga oshirilgan islohotlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar va mavjud muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Mazkur jarayonlarni anglashda tarixshunoslik muhim o'rin tutadi. Chunki mustaqillik yillarida musiqa ta'limi va san'atiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiyalar, monografiyalar hamda maqolalar soni ortib borgan bo'lsa-da, ularning umumiy manzarasini, ilmiy yo'nalishlari va konseptual yondashuvlarini tizimli tahlil qilish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, musiqa madaniyati tarixini yaxlit holda o'rganish, uning ta'lim tizimi, ijro an'analari, folklor va zamonaviy musiqa yo'nalishlari bilan bog'liq jihatlarini tarixiy-ilmiy nuqtai nazardan baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada mustaqillik yillarida musiqa ta'limi va san'ati masalalarining tarixshunosligi tahlil qilinib, mavzu doirasida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiya va monografiyalarning mazmuni, yutuqlari hamda echimini kutayotgan masalalariga e'tibor qaratildi. Maqolaning asosiy maqsadi — mustaqillik davri musiqa ta'limi va san'atiga oid ilmiy merosni umumlashtirish hamda ushbu sohaning keyingi tadqiqotlari uchun nazariy-metodologik asoslarni belgilashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Mustaqillik dastlabki yillarida madaniyat sohasining turli yo'nalishlarida turli tarixiy davrlarda amalga oshirilgan ishlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni o'rganish borasida ham tadqiqot ishlari olib borildi. Bu borada, A. Mavrulov, Yu. Ergasheva, U. X. Qoraboyevlarning doktorlik dissertatsiyasi muhim ahamiyatga egadir [1]. Ushbu dissertatsiya ishlarida madaniy jarayonlar xususida nazariy xulosalar va umumlashtirilgan fikr-mulohazalar nihoyatda boy arxiv va boshqa manbalarga tayangan holda bayon etiladi. Shuningdek, mustaqillik davri tadqiqotlari avvalgi dissertatsiya ishlaridan o'zining sifat jihatdan yuqoriligi bilan ham ajralib turadi. Madaniyat tarixi sohasida bajarilgan ishlarning aksariyatida asosiy e'tibor ta'lim, adabiyot va san'at, ommaviy axborot kabi tarmoqlar faoliyatini umumiy tarzda tahlil etishga harakat qilinganligi bilan xarakterlidir.

Keyingi yillarda ham bajarilgan tadqiqot ishlarida musiqa madaniyatining turli jihatlarini hamda uning etuk vakillari, namoyandalari haqida qisman ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Bu kabi tadqiqot ishlaridan quyidagilarni keltirish mumkin. Masalan, P.Norbo'tayev, B.Кочанов, T.Ametov, Ya.Genjemuratov, S. Кочанова, I.Jollybekova, G. Tursunova, B. Boqiyev, H.Jo'rayev, N.Rajabovalarning dissertatsiya va monografiyalarini keltirish mumkin.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston respublikasi musiqa san'a-ti tarixini o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. P. Paluaniyazov, G. I. Xodjemetovalarning dissertatsiyalarida Qoraqalpog'iston respublikasi musiqa madaniyati tarixi tahlil etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot mustaqillik yillarida musiqa ta'limi va san'ati masalalarining tarixshunosligini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tarix fanining umumilmiy va maxsus metodlariga tayanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, xolislik va izchillik tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotda tarixshunoslik tahlili asosiy metod sifatida qo'llanilib, mustaqillik davrida musiqa ta'limi va san'atiga bag'ishlangan dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Taqqoslama-tahliliy usul orqali turli davrlarda yaratilgan tadqiqotlar mazmuni va ilmiy yondashuvlari o'zaro solishtirildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida musiqa ta'limi va san'ati yagona madaniy tizim sifatida ko'rib chiqildi. Manbashunoslik va kontent-tahlil metodlari orqali ilmiy adabiyotlar umumlashtirilib, mustaqillik davri musiqa madaniyati tarixshunosligining asosiy tendensiyalari aniqlandi.

Tahlil va natijalar. P. Paluaniyazov tadqiqotida 1925-1950 yillarda [2], G. I. Xodjemetova tadqiqotlarida mustaqillik yillarida respublikada musiqa madaniyatining yo'lga qo'yilishi masalalari atroflicha yoritiladi [3]. Ammo, ularda respublika musiqa madaniyatining o'zbek musiqa san'ati bilan o'zaro bog'liqlik jihatlari etarli ochib berilmagan.

Xususan, Sh. I. Agzamxodjayeveva [4], Sh. I. Ayxodjayeveva, Ye. O. Balabekov, F. A. Yakubova va boshqalarning dissertatsiya ishlarida musiqa san'atining turli sohalarini faoliyati tadqiq etiladi. Mumtoz musiqaning maqom janri va uning ijro an'analari Sh. I. Ayxodjayeveva [5] tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, Ye. O. Balabekovning dissertatsiyasida musiqa folklor jamoalarining tarbiyaviy imkoniyatlari xususidagi masalalar tahlil etiladi [6]. Milliy musiqa san'atining inson ma'naviyatiga ta'siri, xususan, mustaqillik sharoitida inson ma'naviyatini musiqa asosida yuksaltirish, an'anaviy xalq musiqasining barkamol insonni shakllantirishdagi o'rni masalalari F. A. Yakubovning tadqiqotlarida o'z aksini topdi [7]. Ushbu dissertatsiya ishlari asosan, san'atshunoslik va pedagogika fanlari doirasida bajarildi.

Mustaqillik yillarida himoya qilingan dissertatsiya ishlari orasida S. B. Qosimxo'jayevaning tadqiqot ishi diqqatga sazovordir [8]. Dissertatsiyada o'zbek musiqa merosini o'rganish, "klassik musiqa" konsepsiyasi, milliy operaning yaratilishi, musiqa ta'limi, musiqa tanqidchiligi masalasi xususida fikr yuritilib, muallif bu jarayonlarni hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib haqqoniy asoslashga harakat qiladi.

Keyingi yillarda o'zbek milliy qadriyatlariga kuchli e'tibor tufayli xalq og'zaki ijodini o'rganish va targ'ib etish kun tartibidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu bois, musiqaning folklor yo'nalishi ham tadqiqotchilar diqqat markazidagi mavzulardan biriga aylandiki, ularning izlanishlari natijalari keng jamoatchilikka ma'lum qilinib, nashr etilmoqda [9].

Ular orasida ayniqsa, B. Yo'ldoshevning monografiyasi muhim o'rin egallab, tadqiqotchi o'z izlanishlari davomida janubiy O'zbekiston xalq baxshilari, ularning shajarasi, dostonchilik maktablari vakillari, ijro usullari, repertuari xususida qimmatli ma'lumotlarni to'play olgan.

N. Qosimovning maqolasida o'zbek xalq laparlarining folklor janridagi o'rni, ijro o'rni, ijro tarzi, ushbu janrning turli tarixiy davrlardagi holati, xususan, XX asrning 60-yillaridan boshlab marosimlarga professional san'atkorlarning kirib kelishi natijasida xalq bazmlaridan laparlarning siqib chiqarilishi, mohir lapar ijrochilari, bugungi kunda bu janrni mustahkamlash muammolari atroflicha tahlil etiladi.

Tadqiqotchi olim P. Norbo'tayev ham o'zbek xalq og'zaki ijodini chuqur o'rgangan mutaxassislardan biri bo'lib, u o'zbek dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari, xalq turmush tarzining xalq og'zaki ijodida aks etishi masalalariga to'xtaladi [10].

Shuningdek, keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida xususan dissertatsiya va monografiyalarda ham o'rganilayotgan mavzuga aloqador ba'zi ma'lumotlar keltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bular qatorida B.A.Кочанов, I.Жоллыбекова, G.Турсунова, B.Боқийевларning ishlarini keltirish mumkin.

Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasining zamonaviy tarixiga bag'ishlangan B.A. Кочановning "Ocherki noveyshey istorii Respubliki Karakalpakstan" hamda B.A. Кочанов va hammualliflar tomonidan tayyorlangan "Ocherki zarubejnoj istoriografii noveyshey istorii Respubliki Karakalpakstan" monografiyasida ushbu hududdagi xalqaro madaniy aloqalar, xususan, amaliy san'at, musiqa va adabiyot sohalaridagi faoliyat keng yoritilgan. Jumladan, 1998 yilda qoraqalpoq san'atkorlari Fransiya va Gollandiyada amaliy musiqa asboblarini namoyish etib, konsertlarda ishtirok etgani qayd etiladi. Shuningdek, 2004 yilda Moskvada bo'lib o'tgan "Madaniyat va san'at forumi"da qoraqalpoq yozuvchisi T.Qayipbergenovning asari taqdimoti hamda xalqaro mukofot bilan taqdirlanishi hudud madaniy hayotining xalqaro miqyosdagi faolligini ko'rsatadi. Ushbu asarlar Qoraqalpog'istondagi musiqa san'ati va madaniyat sohasidagi xalqaro aloqalar tarixi bo'yicha muhim tarixiy manbalardan hisoblanadi [11].

Jolibekova I. tomonidan himoya qilingan "Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida xorijiy hamkorlikning o'rni (1991-2018)" nomli dissertatsiyada Qoraqalpog'iston-dagi madaniy hayot, xususan, musiqa va musiqa ta'limi sohasidagi xalqaro aloqalar keng yoritilgan. Asarda 1990-yillar oxiri va 2000-yillar boshlarida Qoraqalpog'iston

san'at arboblari Fransiya, Gollandiya, Germaniya, Malayziya, Koreya, BAA, Xitoy kabi davlatlardagi xalqaro festivallarda va madaniy forumlarda faol ishtirok etgani ta'riflanadi. Shuningdek, rossiyalik va evropalik musiqachilarning Nukusda o'tkazgan konsertlari, Qoraqalpog'iston artistlarining Moskvadagi nufuzli vokal tanlovlaridagi ishtiroklari misolida xalqaro hamkorlik orqali mahalliy musiqa ta'limi va ijrosining rivoji chuqur tahlil qilingan. Bu tadqiqot Qoraqalpog'istonning zamonaviy madaniy hayoti, musiqa san'ati va ta'limining global jarayonlardagi o'rni o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi [12].

G.A. Tursunovning "Karim Zokirov va uning sulolasi – XX asr O'zbekiston musiqa madaniyati kesimida" nomli monografiyasida Zokirovlar oilasi misolida milliy qo'shiqchilik va estrada san'atidagi rivoj tendensiyalari tahlil etilgan. Monografiyada Botir Zokirov ijodi orqali o'zbek musiqasiga zamonaviy estrada elementlarining kirib kelishi, Sharq va G'arb musiqiy uslublarning ommalashuvi, shuningdek, musiqa ta'limidagi transformatsiya jarayonlari yoritilgan. Botir Zokirovning sahnadagi ovoz diapazoni, opera va romans ijrosi bilan estrada musiqasiga yangicha ruh baxsh etishi uning musiqa ta'limi jarayonida olgan bilimlari hamda faol ijodiy izlanishlari bilan bog'lanadi. Shuningdek, "Yoshlik" ansamblidagi ishtiroki va xalqaro festivallarda qo'shiqlari orqali milliy musiqa madaniyatini jahon sahnalariga olib chiqqani alohida ta'kidlangan. Monografiya musiqa va musiqa ta'limi orqali milliy estrada san'atining shakllanish jarayonlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi [13].

B. Bokiyeving "XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida O'zbekiston ijodiy ziyolilarining madaniy jarayonlardagi o'rni" mavzusidagi dissertatsiyasida o'zbek musiqa ta'limi tizimi tarixi va uning zamonaviy rivojlanish bosqichlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Asarda 1990-yillardan boshlab mamlakatda bolalar musiqa va san'at maktablarining soni va sifati oshib borgani, davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar soha taraqqiyotiga kuchli turtki bergani qayd etilgan. Xususan, 2015–2020 yillarga mo'ljallangan davlat dasturlari asosida yuzlab maktablar zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlangani va xalqaro tanlovlarda o'zbek yosh ijrochilarining muvaffaqiyatli ishtirok etgani ta'lim tizimining sifat jihatdan o'sib borganini ko'rsatadi. Bu tadqiqot musiqa ta'limi infratuzilmasi, pedagogik salohiyat va ijodkor yoshlar tayyorlash tizimi tarixiga doir ma'lumotlar keltirilgan [14].

Mustaqillik davri musiqa madaniyati mavzusi tarixshunosligini o'rganish natijasida shunday xulosaga kelindiki, o'zbek musiqa madaniyatining XX asr tarixi to'la yaratilmagan. Mavjud asarlarda musiqa madaniyatining u yoki bu jihati tadqiq etilib, yaxlit tarzda o'rganilmagan.

Mavzu tarixshunosligini tadqiq etib, muallif shunday xulosaga keldiki, musiqa madaniyati tarixi har tomonlama atroflicha yoritilgan. Tahlilga tortilgan mavzuga doir aksariyat ilmiy adabiyotlar aniq ilmiy poydevorga tayanib yaratilgan. Qolaversa, O'zbekiston tarixi tarixshunosligida musiqa madaniyati mavzusiga kuchli ilmiy qiziqish mavjud bo'lib kelgan. Muayyan tarixiy davrda ilmiy ishlarning yakuniy xulosalari siyosiy-mafkuraviy vaziyatlar bilan chambarchas bog'liqlikda bayon etilgan.

Xulosa. Mustaqillik yillarida musiqa ta'limi va san'ati masalalarining tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda sohaga bo'lgan ilmiy yondashuv mazmunan yangilanib, milliy qadriyatlar, ma'naviy meros va xolis tarixiy tamoyillar asosida rivojlandi. Bu davrda yaratilgan dissertatsiyalar, monografiyalar va ilmiy maqolalar musiqa ta'limi tizimi, milliy va an'anaviy musiqa san'ati, folklor hamda zamonaviy ijro jarayonlarini o'rganishda muhim ilmiy manbaga aylandi.

Biroq, mavjud tadqiqotlar ko'p hollarda musiqa ta'limi va san'atining alohida jihatlarini yoritish bilan cheklanib, mustaqillik yillaridagi musiqa madaniyati taraqqiyotini yaxlit va tizimli tarzda ochib berolmagan. Xususan, ta'lim tizimi, ijodiy amaliyot va davlat madaniy siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks tahlil qiluvchi ishlar etarli emas.

Shu sababli, mustaqillik davri musiqa ta'limi va san'ati tarixshunosligini yanada chuqurlashtirish, mavjud ilmiy merosni qayta baholash va umumlashtiruvchi konseptual tadqiqotlar yaratish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda. Bu esa mustaqil O'zbekistonda musiqa

282 madaniyati va ta'limining rivoj yo'llarini ilmiy asosda belgilash hamda milliy musiqa merosini kelgusi avlodlarga to'laqonli etkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Маврулов А. Культура Узбекистана на современном этапе: общее состояние, проблемы, тенденции развития : автореф. дис. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 1993.
2. Палуаниязов П. Музыкальная культура Каракалпакстана в 1925–1950-е годы : автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 2002.
3. Ходжетова Г. И. Музыкальная культура Каракалпакстана в период независимости : автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2007.
4. Агзамходжаева С. С. Музыковедение в республиках Средней Азии : автореф. дис. ... канд. искусствоведения. – Ташкент, 1993.
5. Айходжаева Ш. И. Мақом тароналари (жанр хусусиятлари, ижро анъаналари) : санъатшунослик фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим қилинган дис. автореф. – Тошкент, 2007.
6. Балабеков Е. О. Воспитательные возможности музыкальных фольклорных коллективов : автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 1997.
7. Якубова Ф. А. Миллий musiqa madaniyati va inson ma'naviyati : san'atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy dаражасини олиш учун тақдим этилган дис. автореф. – Тошкент, 1999.
8. Қосимхўжаева С. Б. XX асрда ўзбек тарихий musiqa shunosligи va tanqidchiliginинг шаклланиши : санъатшунослик фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим қилинган дисс. автореф. – Тошкент.
9. Қахҳоров А. Жанубий Ўзбекистон дostonchilигида етакчи муаммолар. – Тошкент, 1995.
10. Норбўтаев П. Қашқадарё воҳаси ўзбеклари этник хусусиятларининг халқ дostonларида акс этиши. – Тошкент : Янги нашр, 2014. – 176 б.
11. Кошанов Б. А., Аметов Т. А., Генжемуратов Я. Б., Кошанова С. Б. Очерки зарубежной историографии новейшей истории Республики Каракалпакстан : монография. – Нукус, 2016. – 96 с.
12. Жоллыбекова И. Қорақалпоғистон Республикасининг иқтисодий-ижтимоий ривожланишида хорижий ҳамкорликнинг ўрни (1991–2018 йй.) : тарих фанлари номзоди дис. – Нукус, 2020.
13. Турсунова Г. А. Карим Зокиров ва унинг сулоласи – XX аср Ўзбекистон musiqa madaniyati кесимида : монография. – Тошкент : Fan ziyosi, 2021.
14. Бокиев Б. XX асрнинг иккинчи ярми – XXI аср бошларида Ўзбекистон ижодий зиёлиларининг маданий жараёнлардаги ўрни : тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореф. – Тошкент, 2022.